

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN VETERINARIYA AKUSHERLIGI, GINEKOLOGIYASI VA SUN’IY URUG‘LANTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi va sun’iy urug‘lantirish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli **“Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi”** qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi va sun’iy urug‘lantirish

- 1.Hayvonlar jinsiy a’zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi
- 2.Qishloq xo‘jalik hayvonlarini tabiy va suniy qochirish
- 3.Urug‘ olishning fiziologik asoslari va usullari
- 4.Qishloq xo‘jalik hayvonlar akusherligi va tug‘ish jarayoni potologiyasi va tug‘adigan hayvonlarga yordam ko‘rstish
- 5.Yangi tug‘ulgan hayvonlarning fiziologiyasi va ularda uchraydigan kasalliklar
- 6.Nasilsizlik turlari va sabablari ginekologik kasalliklar

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Hayvonlar jinsiy a'zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi	Har xil turdagi urg'ochi hayvonlar ichki va tashqi jinsiy a'zolarining tuzulishi, farqlanishini o'rganish va preparovka qilish. Tuxumdonlarning anatomo-gistalogik tuzulishi. Ovaginez ovulyatsiya turlari va sariq tananing morfofunksiyasi. Har xil turdagi erkak hayvonlar jinsiy azolarining anatomo-fizologik xususiyatlari. Erkak hayvonlarning jinsiy reflekslari va ularning boshqarilishi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	25 %	10 ta
2	Qishloq xo'jalik hayvonlarini tabiiy va suniy qochirish	Suniy qochirish punktlarida ishlatiladigan eritmalarini tayyorlash qoidalari bilimlariga ega bo'lish. Nasildor buqalarda, qo'chqorlar, quyon va parandalarda sperma olish usullarini bilish. Sigir va tanalarda kuyikishni aniqlash. Sigirlarni urug'lantirishning optimal muddatlari va urug'lantirish marrasi. Sigir va tanalarni suniy urug'lantirish usullari. Qo'y va echkilarni suniy urug'lantirish usullari. Cho'chqalarni urug'lantirish usullari. Suniy urug'lantirishni hisobga olish jurnallari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.	12.5 %	5 ta
3	Urug' olishning fiziologik asoslari va usullari	Suniy qin orqali urug' olish usullari. Spermlar fiziologiyasi va uning sifatini baholash. Urug'larni suyultirish uchun ishlariladigan suyultirgishlar tarkibi. Suniy muhitni tayyorlash. Urug'ni suyultirish texnikasi. Spermlar hayotchanligi va suyultirgich muhitining sifatini baholash. Spermatozoidning zichligi, harakatchanligi, o'lik va patologik shakillarning bor yo'qligini aniqlash usullari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.	27.5%	11 ta
4	Qishloq xo'jalik hayvonlar akusherligi va tug'ish jarayoni potologiyasi va tug'adigan hayvonlarga yordam ko'rstish	Turli qishloq xo'jaligi hayvonlarining (sigir, qo'y, echki, cho'chqa) bug'ozlik davrida jinsiy azoldagi anatomo-topografik xususiyatlarini, homila pardalari, ularning tuzulishi, funksiyalari, homila yo'ldoshining tuzulishi, bug'ozlik davirining turli bosqichlarida jinsiy a'zolarining tuzulishi va topografiyasini bilish hamda homila yoshini aniqlash haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish.	32.5 %	13 ta

5	Yangi tug‘ulgan hayvonlarning fiziologiyasi va ularda uchraydigan kasalliklar	Yangi tug‘ulgan hayvonlarda uchraydigan kasalliklar (Birinchi axlatning ushlanib qolishi, kindikdan qon ketish, uraxus fistulasi, kindikning yallig‘lanishi), ularning turlari, kelib chiqish sabablari, tashxis qo‘yish davolash va oldini olish usullari haqida bilimlarga ega bo‘lish.	2.5 %	1 ta
---	---	---	-------	------

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	60 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	20 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.A.J.Jabborov, S.S.Sotboldiyev. Veterinariya akusherligi, ginekologiyasi va sun'iy qochirish.Toshkent 2004

2.B.M.Eshbo'riyev, Sh.B.Atakurbonov. Veretinariya akusherligi fanidan amaliy-laborator mashg'ulotlar. Samarqand -2009